

Ayiqning dumi nega cho'ltoq?

Indoneziya xalq ertagi

Bir kuni yumronqoziq ini og'zida yong'oq chaqib o'tirgan ekan, birdan unga qarab kelayotgan yo'lbarsga ko'zi tushibdi.

"Tamom bo'ldim", - deb o'ylabdi yumronqoziq va qo'rquvdan dag'-dag' titray boshlabdi.

Nima qilish kerak? Ayyor yumronqoziq o'zini darrov qo'lga olib-di. U yong'oqni qarsillatib chaqarkan:

- Bu yo'lbarsning ko'zi bunchalik shirin bo'lmasa-ya! - deb xitob qilibdi.

Bu so'zlarni eshitib yo'lbars qo'rqib ketibdi. U qadamini sekinlashtiribdi, keyin orqasiga burilib iziga qaytib ketibdi. Yo'lbars o'rmondan ketib borarkan, yo'lida unga ayiq uchrab qolibdi. Yo'lbars:

- Ayt-chi, og'ayni, huv anavi yerda og'zini to'ldirib yo'lbars ko'zini yeyayotgan qanday yirtqich? - deb so'rabdi.

- Bilmadim, - javob qilibdi ayiq.

- Yur, birga ko'ramiz, - debdi yo'lbars. Ayiq unga javoban:

- Qo'rqaman, - debdi.

- Qo'rqma, kel bo'lmasa, dumimizni bir-biriga bog'lab boramiz. Bordi-yu biror balo yuz bergudek bo'lsa, bir-birimizni tashlab ketmaymiz,- debdi yo'lbars.

Ular dumlarini bir-birlaruiikiga bog'lab, yumronqoziqning uyiga yo'l olishibdi. Yo'l-yo'lakay rosa maqtanchoqlik qilishibdi.

Yumronqoziq yo'lbars bilan ayiqni ko'rishi bilan ularni hazilakam ko'rmaganliklarini darhol payqabdi. U baland ovozda:

- Mana bu yaramas yo'lbarsni qarang! Otasi menga oq ayiq berib yuborishi kerak edi, o'g'li bo'lsa qorasini yetaklab kelyapti! Bu qanday bedodlik! - debdi.

Ayiq bu so'zlarni eshitib, naq o'takasi yorilayozibdi.

"Gap bu eqda ekan, yo'lbars meni aldab olib kelaetgan ekan-da. U otasining qarzidan qutulish niyatida meni yirtqichga yem qilmoqchi ekan",- deb o'ylabdi u.

Ayiq bir tomonga qochsa, yo'lbars boshqa yonga qarab qochibdi. Shunda ayiqning dumi cho'rt uzilib ketibdi. O'shandan buyon hamma ayiqlarning dumi cho'ltoqligicha qolib ketibdi...

Uddaburon yumronqoziq bo'lsa, yo'lbarsdan omon qolganiga haligacha suyunib yurarkan!

Uzoq sharq kitobi.